

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **QAHRAMON VA MA'NAVIY-AXLOQIY MOTIVATSIYA MUAMMOSI (Alisher Navoiy va boshqa Renessans davri adiblari ijodi misolida)**

**Qodirjon ERGASHEV**

*Filologiya fanlari doktori*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804890>**

**Annotatsiya:** Maqola Renessans adabiyotida qahramon va ma'naviy-axloqiy motivatsiya muammosiga bag'ishlangan. Muallif mazkur masalani Alisher Navoiy va Renessans adabiyotining boshqa vakillari ijodi misolida yoritadi. U Navoiy qahramonlarini u yoki bu hatti-harakatni sodir etishga undovchi motivlar bilan boshqa adiblar qahramonlarining motivatsiyasini, ularning ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganini qiyoslaydi, umumiy va farqli jihatlarini olib beradi. Navoiy qahramonlari motivatsiyasi misolida u Renessans g'oyalarining Navoiy ijodida boshqalardan ko'ra yorqinroq va to'laroq ifodalanganligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** qahramon, motiv, Renessans, motivatsiya, ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganlik, sevgi motivi, shon-shuhrat qozonish, gumanizm, insonparvarlik, risar, g'oya, universal kishi, xatti-harakat.

**Аннотация:** Статья посвящена проблеме героя и духовно-нравственной мотивации. Автор освещает данную проблему на примере творчества Алишера Навои и других представителей ренессансной литературы. Он сравнивает мотивы героев Навои с мотивацией героев других авторов, их духовно-нравственной направленности и показывает их общие и отличительные стороны. На примере мотивации героев Навои автор показывает, что идеи Ренессанса в творчестве Навои отражены более ярче и полнее, чем у других авторов.

**Ключевые слова:** герой, мотив, Ренессанс, мотивация, духовно-нравственная направленность, мотив любви, жажды славы. Гуманизм, человеколюбие, рыцарь, идея, универсальный человек, поступки.

Qahramon so'zi o'rta asrlar va Renessans adabiyotining aksar obrazlariga nisbatan faqat asar qahramoni ma'nosidagina emas, balki bu so'zning tub ma'nosida ham juda mos, ya'ni ular turli jasoratlar ko'rsatadilar, yakkama-yakka olishuvlarga chiqadilar, dushmanlarga qarshi mardona kurashadilar, yo'lbars, sher, fil singari hayvonlar yoki afsonaviy maxluqlar (dev, ajdaho) bilan jangga kirishib, ularni yengadilar. Bunday tasvirlar sharq adabiyoti asarlarida, jumladan Navoiy dostonlarida ham, shuningdek, Yevropa adiblari qalamiga mansub poemalarda ham katta o'rin egallaydi. Qahramonlar faqat jasoratda, kuch-quvvatda tengsiz ekanliklari bilan emas, o'zlarining bilimi, aqli, turli oliyjanob fazilatlari bilan ham ajralib turadilar. Alisher Navoiy o'z qahramoni Farhodni qanday tasvirlagani hammamizga ma'lum. Uning boshqa qahramoni Iskandar bahodirlik va harbiy sohada hammadan o'zibgina qolmay, juda yoshlik paytidan ilm va hunarga ham katta ishtiyoq ko'rsatadi va boshqa insonlar erisha olmaydigan darajaga yetishadi:

Bilik kasbini qildi to joni bor,  
Hunar bildi onchaki imkonim bor...

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Bori ishda bir yerga yetti ishi,

Ki, mumkin emas andoq o'lmoq kishi.[1 – 85]

Renessans adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Matteo Boyardoning qahramoni graf Roland butun umri jang-u jadallarda o'tgan ritsar bo'lishiga qaramay o'z davridagi bilimlarni ham egallaydi va boshqalarni ham shunga da'vat etadi. Buni Rolandning boshqa bir ritsar Agrikanning risar uchun eng asosiy narsa qurol ishlatishda mohirlik ekani, ilmning unga aslo keragi yo'qligi haqidagi fikrlariga munosabat bildirib aytgan so'zlarida ham ko'rish mumkin (Boyardo, Ariosto asarlari o'zbek tiliga o'girilmaganligi sababli maqolamizda ulardan olingan parchalar ruscha tarjimada berildi):

Да, рыцаря первейшее призванье –

Оружие; мы думаем согласно.

Но человека украшает знанье:

Поляна без цветов не прекрасна. [2–facetia.ru/node/3361]

Ma'lumki, Renessans adabiyotining asosiy belgilovchi xususiyatlaridan biri uning o'z diqqat-e'tiborini insonga qaratgani, insonning kuchiga, aqliga, imkoniyatlariga bo'lgan ishonch va mana shuni ko'rsatib berishga, tasvirlashga intilish tamoyilidir. Mazkur davrda yaratilgan eng sara asarlarda har tomonlama rivojlangan, barcha sohada tengsiz bo'lgan nodir qahramonlar obrazlarining yaratilishi Renessans adabiyotining aynan shu xususiyati bilan bog'liq edi. Hamma ishga qodir bo'lgan kuchli, iste'dodli, mislsiz iroda va ezgu fazilatlar sohibi sifatida tasvirlangan bunday obrazlarga nisbatan jahon adabiyotshunosligida "universal kishi", "universal qahramon" atamalari qo'llaniladi. Albatta, bu universal shaxslarning hammasi ham faqat tahsinga sazovor ishlarni qilmaydilar, ularning ba'zilari ayrim holatlarda ma'qullab bo'lmaydigan xatti-harakatlarni ham sodir etishlari mumkin.

Qahramonlarni yuqorida aytib o'tilgan jasoratlarni sodir etishga, ilm va hunarda, turli fazilatlarda yagona bo'lishga undagan sabablar nimalardan iboratligi, ularning xatti-harakatlari ostida qanday maqsadu muddaolar, intilishlar yotganligini va bu xatti-harakatlar, maqsad-intilishlar ma'naviy yoxud axloqiy jihatdan qanchalik asoslanganligi, boshqacha qilib aytganda, qahramonlar motivatsiyasi va uning ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganligi masalasini o'rganish mazkur obrazlarning tabiatini, ma'naviy qiyofasini, mohiyatini ko'rsatib berish nuqtayi nazaridan ham, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini yoritish, muallifning estetik idealini anglash va umuman uning asarining, ijodining qimmati va ahamiyatini belgilash nuqtai nazaridan ham o'ta muhimdir.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Qahramonlar motivatsiyasi haqida so‘z ketganda, eng avvalo, uning xilmalligini, personajlarni u yoki bu ishni qilishga undovchi omillar va sabablarning ko‘pligini qayd etish lozim: sevgi, rashk, o‘ch olish, o‘z yurtini yoki yaqinlarini himoya qilish, qadriyatlarini saqlash,adolat uchun kurash, shon-shuhrat, boylik orttirish, hokimyatparastlik, diniy motivlar va hokazo. Ular orasida sevgi motivi alohida mavqeni egallaydi. Ko‘p asarlarda, xususan, ishqiy-romantik dostonlarda personajlarning jasoratlari, qahramonliklari ishq tufayli, o‘z muhabbat uchun kurashish, sevgilisiga yetishish yo‘lida amalga oshiriladi. Mana shu hol qahramonlarning barcha hatti-harakatlarini oqlabgina qolmay, ularni ma’naviy jihatdan yuksak bir darajaga ko‘taradi. Bu borada Alisher Navoiy asarlari va qahramonlari alohida ajralib turadi. Muallif Farhod, Majnun, Shirin, Laylini haqiqiy, chin ishq nasib qilgan, pok va muqaddas tuyg‘u sohiblari sifatida tasvirlaydi. Bu tuyg‘u qahramonlarning butun borlig‘ini chulg‘agan, sevgan insoni – ularning jonu jahoni, Farhod Shirindan o‘zgani, Shirin Farhoddan o‘zgani o‘z qalbining sohibi sifatida tasavvur eta olmaydi. Ular bu sof tuyg‘ularning loyqalanishiga sabab bo‘luvchi, qalblaridagi ishq nuri jilosiga soya soluvchi biron-bir ish qilmaydilar. Faqat bugina emas. Bu qahramonlar tomonidan insoniylikka, ezgulikka xilof hech qanday xatti-harakatlar ham sodir etilmaydi. Bularning barchasi ularning buyuk sevgi, buyuk qalb egalari sifatidagi benihoyat yuksak ma’naviy qiyofalarini belgilab beradi, mazkur obrazlarga mislsiz joziba baxsh etadi, aynan shu obrazlarning xususiyatlari, bu obrazlar vositasida muallif olg‘a surayotgan g‘oyalar tufayli asar, umuman, Navoiy ijodi ulug‘vorlik, monumentallik kasb etadi.

Boyardo, Ariosto asarlarida ham qahramon o‘quvchi ko‘z o‘ngida chinakam oshiq sifatida gavdalantiriladi, sevgi uni jasoratlarga undovchi asosiy motiv sifatida namoyon bo‘ladi. “Oshiq Roland”da ham, “Telba Roland”da ham Rolandning ishq tufayli tortgan iztiroblari, sevgilisiga yetishish yo‘lidagi intilishlari tasvirlangan. Lekin uning ham, sevgilisi Anjelikanng yo‘li va xatti-harakatlari Navoiy qahramonlarinikidan farq qiladi. Chunonchi, Ariosto qahramoni Anjelika hasratida, unga yetishish orzusida yurar ekan, orada Origilla bilan ishqiy munosabatlarga kirishadi. Rolandning sevgisini rad qilgan Anjelika bilan Rinald o‘rtasida goh sevgi, goh nafrat tuyg‘ulari yuzaga keladi, keyinroq esa Anjelika Medorning sevgisiga noil bo‘ladi. To‘g‘ri, asarda personajlarning bu harakatlari badiiy dalillangan: Roland va Origilla munosabatlari Origillaning Rolandni afsun yordamida o‘ziga qaratib olganligi tufayli, Anjelika va Rinald o‘rtasidagi tuyg‘ular ularning insonda boshqa shaxsga nisbatan sevgi yoki nafrat uyg‘otadigan sehrli buloq suvidan uning xususiyatini bilmagan holda ichganliklari sababli paydo bo‘ladi. Ko‘rinadiki, bu holatlarda personajlarning ishqiy munosabatlari ularning o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

omillar tufayli yuzaga kelgan, bunda shaxsiy motivatsiya mavjud emas. Lekin bundan qat'iy nazar, bu epizodlarda tasvirlangan voqealar mazkur shaxslarning ma'naviy qiyofasini ijobiy shtrixlar bilan boyitmaydi, ularning tuyg'ularini jo'nlashtiradi. Bundan tashqari Roland, yuqorida aytib o'tilganidek, ayrim hollarda uncha maqbul bo'lmanan xatti-harakatlarni ham sodir etadi. Bu o'rinda uning o'z valiyne'mati qiroq Karlga nisbatan qilgan ishlarini, o'zini boshqa shaxs qilib ko'rsatish bilan bog'liq hiylasini yoki uning qiroq og'ir ahvolda qolib, uni yordamga chaqirganda kelmaganini aytib o'tish mumkin.

Anjelika esa asarning bir qator epizodlarida salbiy qiyofada namoyon bo'ladi. Bunga qisman u tushib qolgan vaziyat ham turtki beradi, zero unga oshiq bo'lgan (yoki oshiqlik da'vosini qilgan) bir guruh ritsarlar uni ta'qib etadilar. Bu ritsarlarning har biri qanday yo'l bilan bo'lsa ham Anjelikaga yetishishni, uni o'ziniki qilishni xohlaydi. Qiroq Karl saroyida o'tkazilgan turnirda Anjelika yutuq sifatida qo'yilgan, ya'ni u turnir g'olibiga tegadi, deb e'lon qilingan edi. Qizning ham o'z rejalar bo'lib, shu sababli rozilik bergen, lekin uning o'ylagani amalga oshmaydi. Shundan so'ng Anjelika qochib ketishga muvaffaq bo'ladi. Ritsarlar uning ketidan quvadilar. Mana shu epizodlarda ritsarlar o'zlarini xuddi o'lja ortidan tushgan ovchilardek tutadilar. Bu o'rinda, shuningdek, undan oldingi turnir bilan bog'liq tasvirlarda qahramonlarning intilishlari ostida faqat Anjelikaga nisbatan tuyg'ularigina yotmaydi, zero dunyoga mashhur go'zalni, barcha ritsarlar orzu qilgan qizni o'ziniki qilish juda katta obro' va sharaf edi. Shon-shuhrat, dovruq qozonish esa ritsarlarning xatti-harakatlari motivatsiyasida hamma vaqt katta rol o'ynagan. Ularning shon-shuhrat va o'ljaga o'chliklari Ariostoning quyidagi misralarida yorqin tasvirlangan:

А при нем – его сопутные рыцари;  
И завидевши они двух товарищей,  
Устремились вслед,

Соревнуя о славе и добыче.[3–rulitme/books/neistovyi-roland]

Nom chiqarish, shuhrat qozonish motivining risarlar faoliyatida ne chog'lik muhim o'rin tutishiga boshqa bir qahramon Rinald misolida ham ishonch hosil qilishimiz mumkin. U Shotlandiyada bo'ljan paytida qahramonliklar ko'rsatadi, ezgu ishlarni amalga oshiradi va malika Ginevraning hamda boshqa bir nechta kishilarning hayotini saqlab qoladi. Malika tuhmatga uchragan, uni axloqsizlikda ayplashgan va buni otasi, Shotlandiya qiroli huzurida aytib, qizini jazolashni talab qilgan edilar. Shotlandiya qonunlari o'ta qattiq bo'lib, agar Ginevraga qo'yilgan ayb tasdiqlansa u qatl etilishi lozim edi. Buning ustiga Ginevra haqida mish-mishlar tarqalgandan so'ng uning sevgilisi Ariodant shubhalar girdobida qoladi va g'oyib bo'ladi. Ariodantning

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

akasi Lurkaniy uni o'lgan deb hisoblaydi va buni ham Ginevradan ko'radi. Ana shunday chigal, murakkab vaziyatda Rinald malikaning xaloskorini sifatida paydo bo'ladi. U dastlab Ginevraning sadoqatli cho'risi Dolindani yovuzlardan qutqaradi hamda undan bor haqiqatni, Ginevraning aybsizligini, bu bo'layotgan ishlar Ginevraga sevgi izhor qilgan va sevgisi rad etilgan graf Polinessning fitnalari ekanini bilib oladi. Risar Polinessni fosh qiladi, so'ngra uni halol, ochiq jangda yengadi. Ariodant o'limgan edi. U o'z akasi Lurkaniyni Ginevrali ayblagani uchun o'ldirmoqchi bo'ladi. Rinald buning oldini oladi. Ariodant va Ginevra baxtli bo'ladilar.

Ko'rib turganimizdek, Rinald tufayliadolat g'alaba qiladi, bir nechta insonlarning hayoti saqlab qolinadi, sevishganlar bir-birlariga yetishadilar. Lekin Rinaldning xatti-harakatlari ostida faqat ezgu intilishlarni, ma'naviy-axloqiy yo'naltirilgan motivatsiyaning o'zinigina ko'rish to'g'ri bo'lmaydi. Bunda shon-shuhratga erishish, dovruq qozonish motivi asosiy rol o'ynagan. Gap shundaki, Rinald Shotlandiyaga kelgan dastlabki kunlarda bu yerda o'zini tanitish, ritsar sifatidagi fazilatlarini namoyon etib, nom chiqarish yo'lini izlaydi. Shu maqsadda u o'zi kelib tushgan monastir igumeniga va uning yonidagilarga murojaat qiladi va bunga qanday qilib erishish mumkinligini so'raydi:

И насытив утробу щедрым ужином,  
Он спросил:  
Как в этих краях найти  
Доброму рыцарю побольше срочных случаев,  
И на чем себя показать  
Стоит он хулы или хвалы?[4 – 37]

Monastirdagilar bu yerlar chekka joylar ekanini, qancha yaxshi ishlar qilsa ham ular haqida ko'pchilik eshitmasligini aytib, unga o'z jasoratlarini hammaning ko'z o'ngida sodir etish va shunga yarasha qadr topish, shuhrat qozonish imkonini beruvchi joyga borishni maslahat beradilar hamda shu kunlarda malika Ginevraning boshiga og'ir kunlar tushgani, u himoyaga muhtoj ekani haqida xabar beradilar:

И насытив утробу щедрым ужином,  
Он спросил:  
Как в этих краях найти  
Доброму рыцарю побольше срочных случаев,  
И на чем себя показать  
Стоит он хулы или хвалы?[4 – 37]

Shundan so'ng Rinald Ginevraga yordam berishga bel bog'laydi va yuqorida aytib o'tilgan ishlarni amalga oshiradi. Umuman, risarlik madaniyatida risarning

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

shaxsiy maqsadlari yo‘lidagi yutuqlari birinchi planda turishi tadqiqotlarda ta’kidlab o‘tilgan. Boyardo, Ariosto, Tasso asarlarining qahramonlari ham bundan mustasno emas. Navoiy qahramonlari esa bu jihatdan ulardan farq qiladi. Farhod, Majnunlarni shon-shuhrat mutlaqo qiziqtirmaydi. Biz hatto jahongir Iskandar obrazi tasvirida ham shon-shuhratga o‘ch insonni ko‘rmaymiz, uning faoliyati zamirida mazkur motivning biron-bir rol o‘ynagani ko‘zga tashlanmaydi. Farhod yoki Iskandar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, sodir etilgan jasoratlar tagida oliyjanoblik, odamiylik, insonlar manfaati, ularga naf yetkazish, yaxshilik qilish bilan bog‘liq motivlar yotadi. Ana shunday ma’naviy-axloqiy yo‘naltirilgan motivatsiyaning mavjudligi Navoiy asarlarida faqat bosh qahramonlarning emas, ayrim boshqa personajlarning hatti-harakatlari uchun ham xosligi diqqatga sazovordir. Ana shulardan biri asarda tasvirlangan Chin xoqoni obrazidir.

Iskandar Hind mamlakatini egallaganidan so‘ng Chin hududiga qarab yuradi. Iskandar va Chin qo‘smini bir-birining qarshisida turganda xoqon hech kim kutmagan ishni qiladi. U tong paytida kiyimini o‘zgartirib, oddiy elchi qiyofasida Iskandar huzuriga keladi va Iskandar bilan xoli uchrashib, o‘zining kimligini ma’lum qiladi hamda maqsad-muddaosini bayon etadi. Uning bu ishi, samimiyligini va oqilona so‘zlarini Iskandarga ma’qul tushadi, ular o‘rtasida o‘zaro ishonch payda bo‘ladi va kelishuv tuzilib, dushmanlik barham topadi. Albatta, xoqon uchun bunday qarorni qabul qilish oson bo‘lmagan. Uning yolg‘iz o‘zining dushman qarorgohiga kelishi o‘z jonidan kechish bilan baravar edi. Ulkan sultanat egasining oddiy bir inson qiyofasida Iskandar huzuriga sulh so‘rab kelishi uchun esa uning o‘zidagi shohlik g‘ururi va sha’ni bilan bog‘liq tuyg‘ularni yenga olishi talab etilardi. Xoqon bunga o‘zida kuch topa oldi. Bu uning juda katta ma’naviy jasorati bo‘lib, uning tagida insonparvarlik motivi yotadi, zero urush, dostonda aytilganidek, o‘z joniga ham, xalq joni va mol-mulkiga ham qasd qilish demakdir:

Kishi qilsa da’vo urush big‘idin,  
Omon topmog‘ o‘lmas aning tig‘idin.  
Birovkim, anga aql da’vosi bor,  
O‘zi qasdin etmak ne ma’nosibor?  
Yo‘q o‘z jonig‘a, xalq jonig‘a ham,  
Ne jon, irz ila xonumonig‘a ham.[5 –312]

Qahramon va ma’naviy-axloqiy motivatsiya masalasida Navoiy qahramonlari g‘arb ijodkorlari – Ariosto, Boyardo, Tasso qahramonlaridan emas, Navoiyning sharq adabiyotidagi salaflari qahramonlaridan ham ajralib turadi. Bu jihatdan Nizomiy asaridagi Farhod bilan Navoiy Farhodini qiyoslash maroqlidir. Bu har ikki obraz ham ulkan mehnat jasoratini namoyon etadi. Nizomiy Farhodi toshlarni yo‘nib, sut

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

oqadigan quvur-ariq hamda hovuz bunyod etadi. U benihoyat yuksak bir tog‘ni qazib, toshlarni kesadi va tog‘ o‘rtasidan o‘tadigan yo‘l quradi. Navoiy Farhodining yaratuvchilik faoliyati tufayli “Nahr ul-hayot” arig‘i hamda “Bahr un-najot” hovuzi qaziladi. Bundan tashqari u tog‘ tepasida go‘zal bir qasr quradi. Ular bu ishlarni o‘z muhabbatlari yo‘lida amalga oshiradilar. Lekin ushbu qahramonlar motivatsiyasida nozik bir farq ham bor. Nizomiy asarida Farhod sut oqadigan quvur-ariqni Shirinning iltimosiga ko‘ra barpo etadi. Shirinnning shunday ariq zarurligi haqidagi so‘zlarini eshitgan Shopur unga bir muhandis yigit borligi va u bu ishning uddasidan chiqa olishini aytadi hamda Farhodni Shirin huzuriga olib keladi. Ana shu muloqot paytida Farhod Shiringa oshiq bo‘ladi va uning iltimosini jon-u dili bilan qabul qilib, ishga kirishadi. Tog‘ o‘rtasidan o‘tadigan yo‘lni esa Farhod Xusravning topshirig‘i bilan quradi. Xusrav unga agar shu ishni amalga oshirsa, Shirin uniki bo‘lishini va’da qiladi. Albatta, bu Xusravning makri edi.

Navoiy Farhodi esa ariq qazishga boshqalarning iltimosi yoki topshirig‘i bilan emas, o‘z qalbi amri bilan kirishadi. U Shopur bilan Armanistonga kelayotganda tog‘li bir joyda ariq qazayotgan odamlarni ko‘radi. Ularning ahvoli Farhodning yuragida achinish uyg‘otadi. Qazuvchilar og‘ir mehnatdan shu qadar ezilgan edilarki, yosh yigitlar qari chollardek ko‘rinardilar. Farhodning olivjanob qalbi uni bu mazlumlarga yordam berish, ularni mashaqqatdan xalos etishga undaydi:

Chu kayfiyatni ma’lum etti Farhod,  
Alar holig‘a ko‘ngli bo‘ldi noshod.  
Dedi, bu necha mazlumi sitamkash,  
Falak bedodidin bo‘lg‘on alamkash.  
Ki vayronlig‘larida yuz xalaldur,  
Agar qilsam madad voqi’ mahaldur.  
Hunarni asrabon netkumdur oxir,  
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir?! [6 – 510]

Yuqorida bayon qilinganlar shundan dalolat beradiki, Navoiy Farhodining xatti-harakatlari faqat shaxsiy motiv – o‘z muhabbat uchun kurash doirasida amalga oshirilmaydi, ularning tagida odamiylik, insonparvarlik, odamlarning og‘irini yengil qilish, ularga naf yetkazish, xususan, ezilgan mazlumlarga shafqat ko‘rsatish va yordam berishga intilishlar ham yotadi. Bu Navoiyning boshqa bir qator qahramonlari uchun ham xos. Jumladan, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Chin xoqoni bilan bog‘liq yuqorida ko‘rib o‘tilgan epizodda, Iskandarning xalqni ya’juj-ma’jujlardan himoya qilish uchun devor qudirishi va boshqa ishlarida ham ana shunday intilishlarni ko‘ramiz va bu obrazlar muallifning gumanistik qarashlari va g‘oyalarini ifodalashga xizmat qiladi. Gumanizm, gumanistik qarashlar esa

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Renessans adabiyotining yalovi, u bayroq qilib ko‘targan asosiy g‘oyalardir. Bizning kuzatishlarimiz Navoiy ijodida bu qarashlarning, umuman Renessans g‘oyalarining boshqalarga qaraganda to‘laroq va yorqinroq ifodalanganini ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Тўла асарлар тўплами.!0 жилдлик, 8-жилд, Т, 2011.Б.85.
2. Маттео Боярдо. Влюбленный Роланд. Facetia. ru/node/ 3361/
3. Лудовико Ариосто. Неистовый Роланд –rulit me /books/ neistoviy-roland
4. Лудовико Ариосто. Неистовый Роланд. Перевод М.Л.Гаспарова. Москва, “Наука”, 1993. С.37.
5. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Тўла асарлар тўплами.10 жилдлик.8-жилд. Т., 2011. Б.312.
6. Алишер навоий. Фарҳод ва Ширин. Тўла асарлар тўплами 10 жилдлик. 6-жилдд. Т., 2011. Б. 510.